

ISSN 2181-6883

# PEDAGOGIK MAHORAT

**Ilmiy-nazariy va metodik jurnal**

**1-son (2022-yil, fevral)**

**Jurnal 2001-yildan chiqa boshlagan**

**Buxoro – 2022**

---

# PEDAGOGIK MAHORAT

## Ilmiy-nazariy va metodik jurnal 2022, № 1

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi OAK Rayosatining 2016-yil 29-dekabrda qarori bilan **pedagogika** va **psixologiya** fanlari bo‘yicha dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo‘lgan zaruriy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2001-yilda tashkil etilgan.

Jurnal 1 yilda 6 marta chiqadi.

Jurnal O‘zbekiston matbuot va axborot agentligi Buxoro viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2016-yil 22-fevral № 05-072-sonli guvohnoma bilan ro‘yxatga olingan.

### **Muassis: Buxoro davlat universiteti**

**Tahririyat manzili:** O‘zbekiston Respublikasi, Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko‘chasi, 11-uy

Elektron manzil: ped\_mahorat@umail.uz

### **TAHRIR HAY’ATI:**

**Bosh muharrir:** Adizov Baxtiyor Rahmonovich – pedagogika fanlari doktori, professor

**Bosh muharrir o‘rinbosari:** Navro‘z-zoda Baxtiyor Nigmatovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Mas’ul kotib:** Hamroyev Alijon Ro‘ziqulovich – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

*Xamidov Obidjon Xafizovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor*

*Begimqulov Uzoqboy Shoyimqulovich, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Mahmudov Mels Hasanovich, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Ibragimov Xolboy Ibragimovich, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Yanakiyeva Yelka Kirilova, pedagogika fanlari doktori, professor (N. Rilski nomidagi Janubiy-G‘arbiy Universitet, Bolgariya)*

*Qahhorov Siddiq Qahhorovich, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Mahmudova Muyassar, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Kozlov Vladimir Vasilyevich, psixologiya fanlari doktori, professor (Yaroslavl davlat universiteti, Rossiya)*

*Mustafa Said Arslon, , filologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)*

*Tadjixodjayev Zokirxo‘ja Abdusattorovich, texnika fanlari doktori, professor*

*Amonov Muxtor Raxmatovich, texnika fanlari doktori, professor*

*O‘rayeva Darmonoy Saidjonovna, filologiya fanlari doktori, professor*

*Durdiyev Durdimurod Qalandarovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor*

*Mahmudov Nosir Mahmudovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor*

*Olimov Shirinboy Sharopovich, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Chariyev Irgash To‘rayevich, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Qiyamov Nishon Sodiqovich, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor*

*Qahhorov Otabek Siddiqovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent*

*To‘xsanov Qahramon Rahimboyevich, filologiya fanlari doktori, dotsent*

*Hayitov Shodmon, tarix fanlari doktori, professor*

*To‘rayev Halim Hojiyevich, tarix fanlari doktori, professor*

*Rajabov Qahramon, tarix fanlari doktori, professor*

*Shomirzayev Maxmatmurod Xuramovich, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Muhitdinova Xadicha Sobirovna, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Niyozmetova Roza Hasanovna, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Qurbonova Gulnoz Ne‘matovna, pedagogika fanlari doktori (DSc)*

O‘g‘iljon OLLOQOVA  
Buxoro davlat universiteti  
Boshlang‘ich ta‘lim metodikasi  
kafedrası o‘qituvchisi

## INTENSIV TA‘LIM ASOSIDA BOSHLANG‘ICH SINIF ONA TILI DARSLARINI TASHKIL ETISH

*Maqolada rivojlangan mamlakatlarda ta‘limning intensivlashtirilishi natijasida erishilgan bilim sifati, intensiv ta‘limning mazmun-mohiyati bayon qilingan. Bundan tashqari, kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan o‘quv dasturi va milliy dasturning o‘zaro tafovutlari ko‘rsatilgan. Boshlang‘ich sinf ona tili va o‘qish savodxonligi darslarining intensivlashtirilishi haqidagi ayrim mulohazalar keltirilgan.*

**Kalit so‘zlar:** ta‘lim, intensiv ta‘lim, o‘qitishni intensivlashtirish, Amerika ta‘limi, rus maktablari, dars jadvali, maktab, mashg‘ulot, davlat ta‘lim standartlari, o‘quv dasturlari, milliy dastur, ona tili va o‘qish savodxonligi, kompetensiyaviy yondashuv.

*В статье раскрывается качество знаний, получаемых в результате интенсификации образования в развитых странах, сущность интенсивного образования. Кроме того, показаны различия между учебной программой и национальной программой, основанной на компетентностном подходе. Приведены некоторые соображения об интенсификации занятий по родному языку и чтению грамоты в начальных классах.*

**Ключевые слова:** образование, интенсивное обучение, интенсификация обучения, американское образование, российские школы, расписание занятий, школа, обучение, государственные образовательные стандарты, учебная программа, Национальная программа, родной язык и грамотность чтения, компетентностный подход.

*The article describes the quality of knowledge acquired as a result of intensification of education in developed countries, the essence and significance of intensive education. It also shows the cross-sectional differences between the curriculum and the national programme based on the competency approach. Some feedback on the intensification of the lessons of primary school mother tongue and reading literacy are given.*

**Key words:** education, intensive education, intensification of teaching, American education, Russian schools, timetable, school, occupation, state educational standards, curriculum, national program, native language and reading literacy, competency approach.

**Kirish.** Dunyo miqyosida ilm-fanning taraqqiy etishi kundan-kunga tezlashib, ilgarilab bormoqda. Barcha sohalar singari ta‘lim tizimiga ham yangi texnika, texnologiyaning kirib kelishi bu sohada tub burulish yasamoqda. Barcha rivojlangan mamlakatlar singari yurtimizda ham ta‘limga qaratilayotgan e‘tibor o‘tgan yillarga nisbatan yanada kuchliroq tus olmoqda. Keyingi yillarda mamlakatimizda ta‘limni keng ko‘lamli modernizatsiya qilish jarayoni davom etmoqda.

Ta‘lim barcha sohani rivojlantirishdagi asosiy mexanizm ekanligi, kundan-kunga ushbu sohaning o‘rni va ahamiyati ortib borayotgan bir zamonda bir qancha yechimini kechiktirib bo‘lmas muammolar ko‘ndalang turibdi. Ushbu muammolarni hal qilish, ta‘lim tizimini modernizatsiyalash, islohotlarni bekamuko‘st amalga oshirish masalasi kun tartibidagi asosiy masaladir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan 2022-yil 28-yanvar kuni o‘tkazilgan ta‘lim tizimini rivojlantirishga qaratilgan videoselektorda “Bu sohadagi islohotlarni kechiktirishga haqqimiz yo‘q. Maktab ta‘limida poydevorni bugundan mustahkam qo‘yishimiz kerak. Bunga barcha e‘tiborimiz va resurslarimizni safarbar qilamiz. Qiyin yo‘lni tanlayapmiz, lekin shu yo‘l muammolarni yechadi”, – deb ta‘kidladi. Davlatimiz rahbari tomonidan imzolangan “2022 - 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonida ham ta‘lim tizimidagi dolzarb muammolarni hal qilishga qaratilgan bir qancha maqsadlar belgilandi. “Shu paytgacha foydalanib kelinayotgan ta‘lim standartlari, o‘quv dasturlari faqat nazariy bilim berishga yo‘naltirilgan bo‘lib, bolalarni mantiqiy fikrlashga, amaliyotga, hayotga o‘rgatmayapti. Taraqqiyot strategiyasida to‘rtinchi ustuvor yo‘nalish ham, “Inson qadri uchun – 100 ta maqsad”ning 5 ta maqsadi hamda undagi 18 ta vazifalar ham bevosita maktab ta‘limi bilan bog‘liq”.

Taraqqiyot strategiyasiga ko‘ra 2022-2026-yillarda maktablarni rivojlantirish milliy dasturini joriy etish orqali xalq ta‘limi tizimida qo‘shimcha 1,2 million o‘quvchi o‘rni yaratish; 2026-yilga qadar o‘quv dasturlari va darsliklarni ilg‘or xorijiy tajriba asosida to‘la qayta ko‘rib chiqib, amalda joriy etish kabi ustuvor maqsadlar maktab ta‘limini rivojlantirish, o‘sib kelayotgan yosh avlodni jahon standartlariga mos

keluvchi dastur va darsliklar asosida tarbiyalash, o‘qituvchilarning malakasini doimiy ravishda oshirib borish kabi bir qancha masalalarni ijobiy hal qilishga qaratilgan.

**Asosiy qism.** Ko‘pgina mamlakatlar singari O‘zbekistonda maktab ta‘limini yangi bosqichga ko‘tarishda rivojlangan mamlakatlarning tajribasiga tayanadi. Tarixga nazar tashlaydigan bo‘lsak, maktab ta‘limi bugunga kunga qadar rivojlanishning bir qancha bosqichlaridan o‘tgan. O‘quv jarayonini tashkil etishda bir qancha ta‘lim tizimlari amalga kiritilgan. O‘zini oqlamagan tizimlar o‘rnini boshqasi egallab boravergan. Buni birgina Amerika ta‘limi misolida ham ko‘rishimiz mumkin.

XX asrning so‘nggi choragiga kelib AQShdagi davlat maktablaridagi ta‘lim sifati ko‘pchilikni xavotirga sola boshladi. Chunki davlat maktablarida tahsil olayotgan o‘rtahol oilalarning 17 yoshgacha bo‘lgan bolalari o‘rtasida savodsizlik ko‘rsatkichlari 13 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 40 foizga yaqinida fikrlash va yozish qobiliyati past edi. Bu esa millat kelajagi uchun katta xavf tug‘dirishi tabiiy hol edi. Qolaversa, ishlab chiqarish korxonasi va tashkilotlari ham ischi kuchining yangi avlodidan xavotirga tusha boshladilar. Korxonasi va tashkilot egalari ta‘limni rivojlantirish uchun mablag‘ ajratib, o‘qituvchilarni o‘qish, yozish, matematik ko‘nikmalarini shakllantirish lozimligi haqida shikoyat qila boshlashdi.

Davlat tashkilotlari tomonidan davlat maktablarini takomillashtirish zarurati keng e‘tirof etilganligi sababli maktablar intensivlashitirila boshlangan. O‘quv dasturlari va yuqori standartlarga yo‘naltirilgan islohotlarni chuqurlashtirish ishlari boshlangan. O‘qituvchilarning akademik qobiliyatlari qayta sinovdan o‘tkazilib, ularning ish haqlari oshirilgan, o‘qituvchilarga yuqori akademik talablar qo‘yilgan, ulardan orasida tez-tez sinov topshiriqlari olingan, ijtimoiy yordamga muhtoj bolalarga yordam berilgan. Qilingan sa‘y-harakatlar natijasida ta‘lim sifati asta-sekinlik bilan yuqori pog‘onalarga ko‘tarila boshlangan. Bunda o‘quv jarayoniga intensiv ta‘limning tatbiq etilishi alohida ahamiyatga ega bo‘lgan.

Intensiv ta‘lim (pedagogik ensiklopediyada) - fransuzcha “intensif”, lotincha “intension” – “g‘ayrat qilish”, “kuchayish” “jadal” so‘zlaridan olingan bo‘lib, tezkor amalga oshiriladiga o‘quv jarayonini ifodalaydi.

Amerikalik pedagog olim Fallon Karin 90-yillarda intensiv ta‘lim orqali maktab ta‘limini rivojlantirish borasida o‘z ilmiy izlanishlarini olib boradi. U maktablar haqida quyidagicha fikr bildiradi: “Mukammal holda maktab - bu tuzilgan tashkilot, chunki u o‘qish va o‘qitish jarayonini optimallashtirishga imkon beradi, shu bilan birga, maktabning markaziy ishi o‘qitish va o‘rganish. Maktabning mahsulotlari - bu bilim, ko‘nikma, malaka, kompetensiyaga ega bo‘lgan bitiruvchilardir. Maktab kam mahorat, bilimga ega va yomon xulqli bo‘lgan o‘qituvchilarni tarbiyalasa, jamoatchilik maktablar o‘z ishlarini to‘g‘ri bajarmayotganidan tashvishlanadi”.

Fallon Karin maktablarda intensiv ta‘limni joriy etishda bir qancha savollarga javob topishga harakat qiladi:

- 1) bu maktablarni tashkil qilishning eng yaxshi usuli, o‘qitish va o‘rganishni kuchaytiradigan usulmi?
- 2) intensiv ta‘lim o‘qituvchilar va talabalar uchun eng yaxshi ish joyi sharoitlarini yaratadimi?
- 3) yaxshi maktab qanday tuzilishi kerak?
- 4) ta‘lim va tarbiya uchun eng yaxshi sharoitlar qanday?

Amerika maktablarida intensiv ta‘limning joriy etilishida eng avvalo maktab dars jadvallari qayta ko‘rib chiqilgan. Maktab o‘qituvchilari 30 kun davomida 1 fanni o‘qitishgan. O‘qituvchilar kun davomida faqat bitta o‘qituvchi bilan qolib, 4 soatlik akademik mashg‘ulotlarni bajarishgan. O‘qituvchilar bitta kichik guruh bilan 30 kun yoki 120 soat davomida intensiv ishlagan.

Maktablarda intensiv o‘qitishni joriy etish orqali bir qancha yutuqlarga erishilgan:

<p style="text-align: center;"><b>1. Intensiv talim</b></p> <p>a) sinf o‘quvchilar hajmini kamaytirgan;</p> <p>b) sinfda o‘qish davrlarini uzaytirgan;</p> <p>d) o‘qituvchilar har kuni o‘qitadigan mavzular sonini kamaytirgan.</p>	<p style="text-align: center;"><b>2. Dars jadvalidagi o‘zgarishlar quyidagi jarayonlardagi o‘zgarishlarning rivojlanishiga ko‘maklashgan.</b></p> <p>a) o‘zaro aloqalar;</p> <p>b) o‘qitish usullari;</p> <p>d) mavzuga jalb qilish;</p> <p>e) o‘qituvchining professionalligi;</p>	<p style="text-align: center;"><b>3. Yaratilgan sharoitlar tufayli amalga oshirilgan ushbu jarayonlar quyidagi imkoniyatlarni taqdim etadi.</b></p> <p>a) akademik yutuqlar;</p> <p>b) yaxshi munosabatlar;</p> <p>d) faol ishtirok etish;</p> <p>e) qoniqish.</p>
--	---	--

Fallon Karinning fikriga ko‘ra intensiv ta‘lim bir qancha yo‘nalishlarda rivojlanish imkoniyatlarini yaratadi:

- ilmiy yutuq;
- o‘qituvchilar va o‘quvchilar o‘rtasidagi yaxshi munosabatlar;
- o‘quvchilar o‘rtasidagi ko‘proq ijobiy munosabatlar;
- o‘quvchilarning o‘z tushunchasining yaxshilanishi.

Fallon Karinning ilmiy mulohazalariga mutanosib ravishda Barbara Schieffelinning fikri quyidagicha bo‘lgan: “Intensiv ta‘lim - bu muqobil ta‘lim usuli bo‘lib, unda o‘quvchilar kuniga bir yoki ikkita fanni haftalar davomida o‘rganadilar”. Bundan tashqari Amerikada intensiv ta‘lim nafaqat maktablarda, balki yozgi maktablar va kollejlarda ham tashkil etilgan. Kerol, Kusik, Uolles, Bevan, Deveny & Bookout kabi bir qancha tadqiqotchilar bu borada ilmiy izlanishlar olib borib, yaxshi natijaga erishishgan.

Amerika maktablari kabi Rossiya maktablarida ham intensiv ta‘limning joriy etilishiga alohida e‘tibor qaratilgan. Biroq rus maktablaridagi holat Amerika maktablaridan biroz farq qilgan.

Amerikaliklar ta‘limni intensivlashtirishda dars jadvalidagi mavjud holatga o‘zgartirish kiritishgan bo‘lishsa, rus maktablarida esa odatiy o‘quv soati amal qilavergan.

Rus pedagoglari ta‘limni intensivlashtirish - bu bilim berishning sifat va talablarini kamaytirmasdan o‘qitishning o‘zgarmas davomiyligi bilan katta hajmdagi axborotni uzatishdir deya e‘tirof etishgan.

Ta‘limning intensivlashtirilishi o‘quv jarayonining har bir daqiqasi davomida o‘qituvchi va talabaning ish samaradorligini oshirishdir. Intensiv ta‘limda an‘anaviy ta‘lim tizimi kabi o‘quv soatining belgilangan vaqti o‘zgarmaydi. Biroq, beriladigan bilim hajmi ancha keng qamrovli bo‘ladi.

Rus pedagogi L.Y.Lepeshkina o‘quv faoliyati mazmunini intensivlashtirish va optimallashtirishga yordam beruvchi asosiy bir qancha parametrlarni ajratib ko‘rsatadi.

1. O‘quv materialini oqilona tanlash, asosiy va ikkinchi darajali qismini aniq belgilab olish.
2. O‘quv materiallarining eng muarakkab qismini o‘quvchilarning idrok qilish qobiliyati eng faol bo‘lgan vaqtga qarab taqsimlash.
3. O‘quv jarayonining har bir daqiqasidan unumli va maqbul foydalanish.
4. Ta‘limni individuallashtirish va diffensiallash.
5. Pedagogik muloqot ko‘nikmalarini takomillashtirish, ta‘lim shakllari va usullarini o‘g‘ri tanlash.
6. O‘quvchilarning mehnat ko‘nikmalarini rivojlantirish.
7. O‘quv jarayonida zamonaviy texnik vositalar, jumladan, kompyuterlar va multimedia vositalaridan foydalanish.

**Muhokamar va natijalar.** Biz yuqorida Amerika va Rossiya davlatlarida intensiv ta‘limning joriy etilishining ayrim jihatlari to‘xtalidik. Shu o‘rinda tabiiy savol tug‘iladi: O‘zbekiston ta‘lim tizimida intensiv ta‘lim joriy qilinganmi, uning o‘rni va ahamiyati qanday? Maktablarda o‘quv jarayonini jadallashtirishning joriy holati qay darajada? Ushbu savollarga javob berishga harakat qilib ko‘raylik.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach ta‘lim berish sifatini oshirish, kuchli bilim va salohiyatga ega bo‘lgan kadrlarni tayyorlash, keng dunyaqarashga ega bo‘lgan, o‘z fikr-mulohazasini erkin bayon qila oladigan yoshlarni tarbiyalash maqsadida bir necha bor davlat ta‘lim standartlari va o‘quv dasturlari yangilanib, takomillashtirib borilmoqda. Har bir qabul qilingan o‘quv dasturi avvalgisidan farq qilib, bilim berishning zamonaviy tendensiyalariga va jahon ta‘lim standartlariga yaqinlashtirib borish nazarda tutiladi. Xususan, fikrimiz dalili sifatida yaqin o‘tmishda amalda bo‘lgan bo‘lgan 2017-yil qabul qilingan kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan o‘quv dasturi va 2021-yil qabul qilingan milliy dasturlarni o‘zaro taqqoslab ko‘raylik:

- nazariy soatlar qisqartirilib, amaliy soatlar hajmi umumiy holatda milliy dasturda 22 foizdan 50 foizgacha oshirildi;
- o‘quvchilarning individual istaklari va qobiliyatlarini inobatga olish imkoniyatini beruvchi variativ o‘quv rejalar asosida o‘qitish tizimini joriy qilish imkoniyati kengaytirilmoqda;
- o‘quvchilar yoshidan kelib chiqib, xalqaro tajribalar, psixologik va sanitariya normalariga asoslanib haftalik normativlar sinflar kesimida qayta ko‘rib chiqilib, bosqichma-bosqich o‘quv yuklama soatlari qisqartirildi;

- yangi milliy o‘quv dasturida barcha sinflar kesimidagi haftalik yuklama 314 soat etib belgilandi. Bu esa 2019-yildagiga nisbatan 25 soat kam.

- umumiy holatda o‘rganiladigan mavzular soni 6789 tadan 1057 taga qisqartirilib, 5732 taga kamaytirildi. Birgina boshlang‘ich sinf ona tili darsliklaridagi 18 mavzu qisqartirildi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib aytish mumkinki, milliy dasturga binoan boshlang‘ich sinf ona tili darslari intensivlashtirilgan deydik asosimiz bor. Chunki ona tili va o‘qish darslarining integratsiyalanishi natijasida haftalik o‘quv soatlar hajmi 10 soatdan 7 soatgacha qisqartirildi. O‘rganiladigan o‘quv materiallari mazmuni tubdan o‘zgartirilib, o‘quvchilarni xalqaro baholash tizimi talablariga javob berishga tayyorlaydigan, ularni tanqidiy va mantiqiy fikrlashga o‘rgatadigan mashqlar kiritildi. Bundan tashqari, o‘quvchilarga bitta mavzu doirasida bir paytning o‘zida fonetik, leksik, morfologik, sintaktik bilimlar kompleks o‘rgatiladi. Berilgan matn asosida o‘quvchilar ham fonetik, ham leksik, ham grammatik, ham orfografik bilimga ega bo‘lishadi. Birgina ona tilida o‘rganiladigan so‘z turkumlari mavzusini olib ko‘raylik. Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan o‘quv dasturi asosida yaratilgan 1-sinf ona tili darslarida so‘z turkumlaridan faqat 4 tasi o‘rganilar edi: shaxs va narsaning nomini bildirgan so‘zlar, shaxs va narsaning harakatini bildirgan so‘zlar, shaxs va narsaning belgisini bildirgan so‘zlar, shaxs va narsaning miqdorini va tartibini bildirgan so‘zlar.

Milliy dastur asosida yaratilgan ona tili va o‘qish savodxonligi darslari intensivlashtirilishi natijasida, 1-sinf darsligining 1-bo‘limidan boshlab o‘quvchilar gaplar yig‘indisi va matni farqlashi, matndagi gaplar o‘rtasidagi bog‘liqlikni tushunishi, matn yaxlitligiga xizmat qiladigan vositalarni (mantiqiy bog‘lanish, olmoshlar) tushunishi kerak. O‘quvchilar kishilik olmoshlaridan foydalanib, o‘z fikrini erkin bayon qila olishi kerak. Vaholanki, kishilik olmoshlari 4-sinfda o‘ragatilar edi.

Yana bir misol tariqasi boshlang‘ich sinflarda fe‘l so‘z turkumini o‘rgatish tizimini olaylik. Milliy dasturga asosan o‘quvchilarga yangi tushuncha, fe‘l nisbatlari o‘rgatiladi. 4-sinfda ular majhul va ortirma nisbatdagi fe‘llarning farqi, ularning ma‘no ifodalashdagi o‘rnini anglashga, ma‘lumotni majhul nisbat orqali berishda uning mazmuniy va shakliy o‘zgarishlarini anglash ustida mashq va topshiriqlarni bajaradilar.

**Xulosa.** Yuqoridagilardan xulosa qilib aytishimiz mumkinki, ona tili va o‘qish savodxonligi darslarini intensivlashtirish yilda-yilga ortib bormoqda.

### Adabiyotlar

1. Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 28-yanvar kuni “Maktab ta’limini rivojlantirish masalalari” bo‘yicha videosektor yig‘ilishidagi ma’ruzasi. 28.01.2022.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni, 28.01.2022.

3. Olloqova M. O. Intensive education and linguistic competence in mother tongue //ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL. – 2021. – T. 11. – №. 1. – C. 580-587.

4. Olloqova O. M. ONA TILI DARSLARIDA INTENSIV TA’LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH //Scientific progress. – 2021. – T. 2. – №. 6. – C. 1025-1029.

5. Mamanazarovna O. U., Gulnoza M. USE OF DIDACTIC GAMES IN MOTHER TONGUE LESSONS. – 2021.


6. OLLOQOVA O. ONA TILI TA’LIMIDA INTENSIV TA’LIM TEXNOLOGIYALARINI QO‘LLASHNING NAZARIY METODOLOGIK ASOSLARI //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – T. 1. – №. 1.

7. Yusufzoda S., Ortiqova S. Improving the methods of developing thinking ability of primary school students in mathematics //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – T. 11. – №. 4. – C. 1458-1463.

8. Yunus Y. S. et al. Use of innovative technologies in improving the efficiency of primary school students //Middle European Scientific Bulletin. – 2021. – T. 11. – №. 1.

9. YARASHOV M. BOSHLANG ‘ICH SINIF MATEMATIKA TA’LIMINI IJODIY TASHKIL ETISHDA TA’LIM TAMOIYILLARINING O‘RNI //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ. – 2020. – T. 1. – №. 1.

10. Jobirovich Y. M. The Role Of Digital Technologies In Reform Of The Education System //The American Journal of Social Science and Education Innovations. – 2021. – T. 3. – №. 04. – C. 461-465.



Buxoro davlat universiteti muassisligidagi  
“PEDAGOGIK MAHORAT”  
ilmiy-nazariy va metodik jurnali  
barcha ta’lim muassasalarini  
hamkorlikka chorlaydi.

Pedagoglarning sevimli nashriga aylanib ulgurgan “Pedagogik mahorat” jurnali maktab, kollej, institut va universitet pedagogik jamoasiga muhim qo‘llanma sifatida xizmat qilishi shubhasiz.

Mualliflar uchun eslatib o‘tamiz, maqola qo‘lyozmalari universitet tahririy-nashriyot bo‘limida qabul qilinadi.

Manzilimiz: Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi 11-uy  
Buxoro davlat universiteti, 1-bino 2-qavat, 208-xona

**Tahririyat rekvizitlari:**

Moliya vazirligi g‘aznachiligi

23402000000100001010

MB BB XKKM Toshkent sh. MFO 00014 INN 201504275

**BuxDU 400110860064017094100079001**

*Pedagogik mahorat: rivojlanamiz va rivojlantiramiz!*

<p><b>PEDAGOGIK MAHORAT</b></p> <p><b>Ilmiy-nazariy va metodik jurnal</b></p> <p><b>2022-yil 1-son (83)</b></p> <p><b>2001-yil iyul oyidan chiqa boshlagan.</b></p> <p><b>OBUNA INDEKSI: 3070</b></p>	<p><b>Buxoro davlat universiteti nashri</b></p> <p>Jurnal oliy o‘quv yurtlarining professor-o‘qituvchilari, ilmiy tadqiqotchilar, ilmiy xodimlar, magistrantlar, talabalar, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari hamda maktab o‘qituvchilari, shuningdek, keng ommaga mo‘ljallangan.</p> <p>Jurnalda nazariy, ilmiy-metodik, muammoli maqolalar, fan va texnikaga oid yangiliklar, turli xabarlar chop etiladi.</p> <p><b>Nashr uchun mas’ul: Alijon HAMROYEV. Musahhih: Muhiddin BAFAYEV. Muharrir: O‘g‘iljon Olloqova</b></p>	<p>Jurnal tahririyat kompyuterida sahifalandi. Chop etish sifati uchun bosmaxona javobgar.</p> <p>Bosishga ruxsat etildi 28.02.2022 Bosmaxonaga topshirish vaqti 03.03.2022 Qog‘oz bichimi: 60x84. 1/8 Tezkor bosma usulda bosildi. Shartli bosma tabog‘i – 20,6 Adadi – 100 nusxa Buyurtma № 76 Bahosi kelishilgan narxda.</p> <p>“Sadriddin Salim Buxoriy” MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Bosmaxona manzili: Buxoro shahri M.Iqbol ko‘chasi 11-uy.</p>
---	---	---